

DOSTONLARDA O'XSHATISHLARNING O'RNI

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i02.008>

Gulxumor Taxirovna Djamalxodjayeva
O'zDSMI

Annotatsiya: Maqolada Muhammad Yusuf dostonlarida qo'llangan o'xshatishlarning turlari, ularning badiiy-estetik qimmati va poetik funksiyalari tahlil etilgan. O'xshatish etalonlariga ko'ra tasniflangan lingvomadaniy o'xshatishlar (inson, hayvon, o'simlik, narsa-buyum, taom, makon nomlari bilan bog'liq) ijodkor mahoratining o'ziga xosligi va milliy ruhni aks ettirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'xshatish, Muhammad Yusuf dostonlari, badiiy tasviriy vositalar, o'xshatish etaloni, lingvomadaniy o'xshatishlar, milliy obrazlar

THE ROLE OF COMPARISONS IN EPICS

Gulkhumor Takhirovna Djamalkhodjayeva
UzSIAC

Abstract: The article analyzes the types of similes used in Muhammad Yusuf's epics, their artistic-aesthetic value and poetic functions. Linguocultural similes classified according to comparison standards (related to human, animal, plant, object, food, and place names) reveal the uniqueness of the author's mastery and the importance of reflecting the national spirit.

Keywords: simile, Muhammad Yusuf epics, artistic figurative means, comparison standard, linguocultural similes, national images

Badiiy asarda so'z san'atkorining kuzatuvchan ziyrak nigohi va teran badiiy didining mahsuli sifatida yuzaga kelgan o'xshatishlar tasviriy vositalarning eng qadimiysi hisoblanadi. "Badiiy asar tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalanib kelinadi. O'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga kelishi bilan bir qatorda nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ikki turi mavjud bo'lib, individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar hamda umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar bilan farqlanadi".[1.5-6]

Har bir xalqning o'ziga xos o'xshatishlari mavjud. Yozuvchi o'zining badiiy-tasviriy maqsadiga muvofiq ravishda ulardan foydalanadi. Muhammad Yusuf

dostonlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ijodkor asarida o'xshatishlar asosiy o'rin tutishini kuzatishimiz mumkin. Tahlil jarayonida adib o'zbek millatiga xos lingvomadaniy o'xshatishlardan keng va unumli foydalanganligini ko'ramiz. Ularning o'xshatish etaloniga qarab quyidagi guruhlariga ajratib tahlilga tortdik:

Inson va tuyg'ulari bilan bog'liq o'xshatishlar. Muhammad Yusuf an'anaviy o'xshatishda ta'kidni bo'rttirish maqsadida o'xshatish etalonini ham birga qo'llaydi:

Qo'ling ochiq, ko'zlaring yumuq -

Sen mening otamga o'xshaysan.[2.181]

Adib o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi sifatida "o'xshaysan" vositasidan foydalangan. Odatda bir predmet-holat boshqasiga muayyan bir belgiga ko'ra emas, balki butunicha, to'lasicha, aynan o'xshatilmochi bo'lsa, o'xshatish asosi bevosita ifodalanmaydi. Bunday holatlarda o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi sifatida ham ko'pincha o'xshamoq fe'lidan foydalaniladi.[3.58] "Ota" leksemasiga tegishli "mehribon, keksa, xoksor, aziz" semalari o'xshatishga vosita bo'lyapti. Oldingi misradagi *qo'ling ochiq, ko'zlaring yumuq* iboralari ota obrazini yanada quyuqlashtiradi. Ya'ni uni saxiy va g'ofil sifatlari bilan boyitadi.

Quyidagi o'xshatishda esa ota siymosi sog'inch tuyg'usiga tenglashtiriladi:

"Men kimdir o'tinga mo'ljallab qo'ygan qadrdon shotutni otamni sog'ingandek sog'inaman".[2.175] Bunda bolalikdan qadrdon shotut daraxti haqida so'z borar ekan, uning *o'tinga mo'ljallab qo'yilgani ham* o'ziga xos poetik funktsiya bajaradi. Ota siymosida oddiy, xoksor mehnatkash insonlarning davr qurboniga aylangani nazarda tutiladi.

Hayvon va jonivorlar bilan bog'liq o'xshatishlar. Dostonlarda hayvon va jonivorlar nomi bilan bog'liq o'xshatishlar ijodkorning ma'naviy va madaniy kontekstini aks ettiradi. Ushbu o'xshatishlar, odatda, salbiy va ijobiy ma'nolarni ifodalashda ishlatiladi. Shuningdek, bu o'xshatishlar orqali muallifning xarakterlarni tasvirlash va ularning ijtimoiy rolini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Hayvon va jonivorlarga asoslangan badiiy tasvirlar orqali, dostonlarda insoniy xususiyatlar, ijtimoiy masalalar va axloqiy tushunchalar osonroq va ta'sirchanroq tarzda ifodalanadi: Masalan,

"Shukur Burhonni ham kuzatib qo'ydik,

Ketdi qon yuragi ustida qo'li.

Ortidan ergashib borib biz qo'ydek,

Yerga berib keldik o'pkamiz to'lib".[3.192]

qo'ydek o'xshatishi yuvosh, beozor, qayoqqa boshlasa ergashib ketadigan odamlarga nisbatan qo'llanadi. Ma'lumki, ayni bu o'xshatish o'zbekcha o'lchov sifatida beozorlik ma'nosida qo'llanilib, tamoman milliy obraz maqomini olgan.[1.11] Mahoratli shoir ushbu o'xshatishdan matnni shakllantirishda unumli foydalangan. O'xshatish etalonining originalligi o'xshatish obyektining obrazini tirik bir tarzda

ifodalashga imkon beradi. Masalan, Muhammad Yusuf dostonlarida buni ko‘rishimiz mumkin:

*Yillar ham ko‘chmanchi qaldirg‘ochlardek,
Kelar,
Ketaverar,
Miq etmay, beun. [2.156]*

Yillar leksemasi *fasl* so‘zi o‘rnida qo‘llanilib, ular ko‘chmanchi qaldirg‘ochlar singari kelib, ketishi o‘quvchi ko‘z o‘ngidan o‘tishi shubhasiz. Bu o‘xshatish poetik ma‘no ifodasida faol ishtirok etgan. Keyingi misolda salbiy ma‘noni anglatadigan o‘xshatishni ko‘rib o‘tamiz:

*Jallod - ko‘zoynakli ilondek makkor,
Lavrentiy! Lavrentiy sayr qilmoqda. [2.159]*

Ushbu ifodada *ilondek* o‘xshatish etaloni ayyorlik, makkorlik ichki ma‘nosiga e‘tibor qaratiladi. *Lavrentiy* - o‘xshatish subyekti, *ilon* - o‘xshatish etaloni, *makkor* - o‘xshatish asosi, *-dek* - o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi sifatida qo‘llanilgan. Yana adibning ayni shu o‘xshatish etalonidan ushbu dostonning o‘zida takror foydalanganligini kuzatamiz:

*O‘y yomon qiynar odamni.
Ilondek yurakni kemirar mal‘un. [2.155]*

Bu parchadagi *ilon* o‘xshatish etaloni endi shaxsga nisbatan emas, balki inson o‘yini yuragini kemirayotgan o‘y-xayollarga qiyoslangan.

Ish-qurol buyumlari bilan bog‘liq o‘xshatishlar. Ma‘lumki, badiiy matnda odatda *xanjar* o‘xshatish etaloni bilan ifodalanganda “ko‘ngilga juda qattiq azob beradigan gap-so‘z, harakat-holat kabi” ma‘nolarni anglatib keladi. Muhammad Yusuf ayni ushbu o‘xshatish etalonini shunday mahorat bilan qo‘llagan-ki, bitta so‘z bilan bir necha ma‘nolarni anglatib kelganligini kuzatamiz:

*Oy nurida xanjardek
Yaltiraydi maysalar,
Bobo Shiroq
Yelkasida
Qaltiraydi nayzalar... (“Ey dil...”)*

Ushbu satrlarda *xanjar* o‘xshatish etaloni bilan *oy nurida* turgan maysalar tasviri chiziladi. Bunda *xanjar* va *oy nuridagi yaltiroqlik* hamda *maysa* va *xanjardagi shakl* xususiyatlari e‘tiborga olinadi. Shu o‘rinda *Shiroq* afsonasi esga olinadi. Afsonaviy qahramon *Shiroqning* o‘z vatani uchun *Doro I* ning qo‘lida halok bo‘lgani *Bobo Shiroq yelkasida Qaltiraydi nayzalar* misralarida namoyon bo‘lib, asar ruhini boyitishga xizmat qilgan.

O‘simlik va gullar bilan bog‘liq o‘xshatishlar. Dostonlarda o‘simlik va gullar bilan bog‘liq o‘xshatishlar bir subyekti uchun bir necha o‘xshatish etalonlari va asoslari

bilan ifodalanishi ko'plab ma'nolarni keltirib chiqaradi. Masalan: "*She'rlarim esa huv o'sha, hujralaringni supurib-sidirib yurgan aqli ojizroq o'g'lingdek, uning rayhonlaridek poyingga sochaman*".[2.195] O'xshatish obyekti - muallifning *she'rlari*, o'xshatish etaloni - *aqli ojiz o'g'il* hamda u ekan *rayhonlar* bo'lib, ushbu ikkita o'xshatish etaloni tasvirning ta'sirchanligini oshirgan. Bunday o'xshatishlarda o'xshatish etalonlarining ko'p bo'lishini, ularning bir-birlariga ustalanishlarini hisobga olib, "qavatlangan o'xshatish" deyish mumkin.[3.58] Shoir dostonidagi quyidagi parchada original tarzda o'xshatishni kuzatamiz:

*Bamisli shoxdan duv to'kilgan bodom,
Yotibdi bepoyon maydon to'la odam...* [2.167]

Yuqoridagi satrlardagi *duv to'kilgan bodom* o'xshatish etalonini qatag'onga uchragan, maydonda yotgan qurbonlarga o'xshatishi bilan birga ijodkorning o'tkir nigohi va idrokining favqulodda topqirligini ilg'amaslik mumkin emas.

Narsa-buyum nomlari bilan bog'liq o'xshatishlar. Quyidagi misrlarda shoirning o'z xalqiga, xalq qahramonlariga bo'lgan achinishini, ko'ngil iztirobini namoyon qilgan hisni ko'ramiz:

*Yo'q, yuzi somonga o'xshaydi uning,
Charaqlab turguvchi ko'zi to'la mung...* [2.153]

Ifodada adib asar qahramonini, ya'ni qatag'on qurboniga aylangan Abdulla Qodiriy siymosini, yuzini somonga qiyoslaydi. Ma'lumki, *somonga* o'xshatish orqali qahramon holati abgor ekanligini anglash mushkul emas. Shoir tasvirlangan holat va qahramon ruhiyati uchun eng mos o'xshatish etalonlarini tanlagan. Yana xuddi shunday *somon* an'anaviy o'xshatishga *-day* o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi orqali adibning ko'nglidagi achinishlari, iztiroblari namoyon bo'ladi:

*Somonday sarg'ayib qizg'aldoqlari,
Ko'z o'ngimda, ko'z o'ngimda berar jon.*[2.194]

Parchaning umumiy mazmunida Orol dengizi fojiasi tasviri so'z bilan go'zal ifodalangan. Shu o'rinda *somonday* an'anaviy o'xshatish etaloni o'sha muhitdagi qizg'aldoqlarni sarg'ayib qurub borayotgan holati bayon qilinadi.

Taom, yegulik nomlari bilan bog'liq o'xshatishlar. Muhammad Yusufning milliy ruh bilan sug'orilgan ushbu misrlarida *nonday* o'xshatish etaloni orqali Vatanga bo'lgan yuksak muhabbati, uning qanchalar aziz va qadrli ekanligini namoyon qilishda foydalanganligini kuzatamiz:

*Ardog'ida
O'sdim, uni
Suyib yashay nonday man. ("Ey dil...")*

Makon va joy bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishlar. Tasvirning aniqligi, realligi uchun eng qulay vosita, albatta, o'xshatish, shuning uchun ham Muhammad Yusuf ayni

shu vositaga ko'p murojaat qiladi. Buning uchun eng kutilmagan, juda ohorli o'xshatish etaloni tanlaydi:

*Shahar o'lsa dunyodek qadim,
Ko'mgaylar ne kafanga o'rab?..* [2.179]

Shoir dostonidan keltirilgan parchada Buxoro shahrining qadimiyligini dunyoning qadimiyligi bilan qiyoslaydi. Bunda *shahar* - o'xshatish obyekti, *dunyo* - o'xshatish etaloni, *qadim* - o'xshatish asosi, o'xshatish vositasi *-dek*. Ijodkorning yana joy nomi bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishning betakror namunasini quyidagi misrlarda ko'rishimiz mumkin:

*"Sensiz menga tor kulbadek bor jahon,
Ko'z o'ngimda, ko'z o'ngimda berar jon".* [2.195]

Kulba so'zning "O'zbek tili izohli lug'atida" qorong'i, tor uycha ma'nolarini anglatadi. Ma'lumki, xalqimizda *dunyo ko'ziga tor bo'ldi* iborasi mavjud. Ayni ushbu satrlarda keltirilgan *sensiz menga tor kulbadek bor jahon* jumlasini xalqimizda keng qo'llaniladigan *dunyo ko'ziga tor bo'ldi* iborasining "yusufona" shaklining go'zal namunasi. Muhammad Yusufning bu turdagi o'xshatishlarini kuzatganda, uning etalon tanlashdagi betakrorligi, tasvirlash benihoya mushkul bo'lgan holat-harakatlarning eng nozik jihatlari ham aniq gavdalantirishda kutilmagan o'xshatish etalonlarini tabiatdan, turmushning o'zidan topa bilishini dostonlarida ko'rish mumkin.

O'xshatishlarning dostonlarda biz o'xshatish vositasi ishtirok etganlarini bevosita tahlil qilib o'tdik, biroq o'xshatishlar har doim ham o'xshatish vositalari bilan birga qo'llanilmaydi. Bunday o'xshatishlarni ayrim ilmiy manbalarda izohlovchi-izohlanmish holatida badiiy asarlarda faol ishlatilishi haqida ta'kidlab o'tiladi.[4.226] Xususan, bunday o'xshatishlardan Muhammad Yusuf ham ayniqsa "Qora quyosh" dostonida keng foydalanganligini quyidagi misrlarda kuzatamiz:

- *Yolg'on nima, ey odam*
- *Yolg'on - o't o'smas dala.*
- *Haq nimadir, ey odam?*
- *Haqiqat - yetim bola...* [2.148]

Muhammad Yusufning orzumand ko'nglini, alamzada yuragini ayni shu dostonidagi *haqiqat, yolg'on* o'xshatish etalonlari orqali ko'rishimiz mumkin. Har ikkala o'xshatish etaloni sifatida tanlangan so'zlarning asosiy semasida jadidlar boshiga tushgan ko'rgiliklar, iste'dod evaziga istibdod zehrini tortishga majbur bo'lgan qatag'on qurbonlarining ichki kechinmalari - *haqiqat* yoki *yolg'onga* o'xshatiladi. Darhaqiqat, ushbu o'xshatishlar parchada bir-biriga zidlantirib kontrastlikni hosil qiladi. Bu esa o'xshatishning poetik qimmatini, estetik salmog'ini oshirishga yordam beradi.

Ta'kidlash joizki, Muhammad Yusuf dostonlarida o'xshatishlarning barcha badiiy imkoniyatlarini to'liq ishga sola bilgan. Ijodkor xalqona ifodalar vositasida o'xshatishlarning noyob namunalarini topa olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маҳмудов.Н., Худойберганава. Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. - Тошкент: Маънавият, 2013. - Б. 5-6.
2. Муҳаммад Юсуф. Халқ бўл элим // Ўзбекистон. - Тошкент, 2018. - 137-204-б.
3. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. - Тошкент: Маънавият, 2002.
4. Қўнғиров Р. Ўзбек стилистикасидан очерклар. - Самарқанд, 1975. - Б. 226.
5. Djamalxodjayeva G. T. MUHAMMAD YUSUF IJODIDAGI FOLKLORIZMLAR LINGVOPOETIKASINING O'RGANILISH MASALALARI //Oriental Art and Culture. - 2023. - T. 4. - №. 1. - С. 398-405.